Bu yerda x_i — i-indikatorning amaldagi qiymati; $x_{\min}$ va $x_{\max}$ — taqqoslash davri yoki koridorlar to'plamidagi eng kichik va eng katta qiymatlar. Emissiya, vaqt va xarajat kabi kamayishi ijobiy natija beradigan indikatorlar uchun teskari normallashtirish qo'llaniladi:

$$z_i^- = (x_{\max} - x_i) / (x_{\max} - x_{\min}). \quad (2)$$

Normallashtirilgan komponentlar quyidagi og'irliklar bilan agregatsiya qilinadi:

$$YMKRI = 0,25E^* + 0,20M^* + 0,15T^* + 0,15C^* + 0,10D^* + 0,10I^* + 0,05R^*. \quad (3)$$

Bu yerda E^* — tonna-kilometr ga nisbatan issiqxona gazlari emissiyasining teskari normallashtirilgan ko'rsatkichi; M^* — temir yo'l va boshqa past uglerodli transport turlaridan foydalanish hamda intermodal ulanish darajasi; T^* — yetkazib berish vaqti va ishonchliligi; C^* — logistika xarajatlari samaradorligi; D^* — elektron hujjatlar, yagona identifikator va real vaqt ma'lumotlari qamrovi; I^* — terminal, konteyner va axborot tizimlarining o'zaro moslashuvi; R^* — terminal va tortish energiyasida qayta tiklanuvchi yoki kam uglerodli energiya ulushi. Og'irliklar adabiyotlarda ekologik natija, modal siljish, vaqt va xarajatning ustuvorligi hamda milliy strategik maqsadlar asosida muallif tomonidan belgilangan. Shu bois ularni pilot koridorlarda ekspertlarning Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) orqali tekshirish maqsadga muvofiq.

1-jadval. YMKRI komponentlari va ularning og'irliklari¹

Belgi	Komponent	Tavsiya etiladigan asosiy o'lchov	Yo'nalish	Og'irlik
E^*	Uglerod samaradorligi	kg CO ₂ -ekv./tonna-km	Kamaysa — ijobiy	0,25
M^*	Modal muvozanat	Temir yo'l va intermodal tashish ulushi, %	Oshsa — ijobiy	0,20
T^*	Vaqt va ishonchlilik	Yetkazib berish vaqti; o'z vaqtida yetkazib berish, %	Aralash	0,15
C^*	Xarajat samaradorligi	AQSh dollari/tonna-km yoki jo'natma	Kamaysa — ijobiy	0,15
D^*	Raqamlashtirish	Elektron hujjatli jo'natmalar, %	Oshsa — ijobiy	0,10
I^*	O'zaro moslashuv	Standartlashtirilgan terminal va ma'lumot interfeyslari, %	Oshsa — ijobiy	0,10
R^*	Toza energiya	Kam uglerodli energiya ulushi, %	Oshsa — ijobiy	0,05
Belgi	Komponent	Tavsiya etiladigan asosiy o'lchov	Yo'nalish	Og'irlik

YMKRI qiymatini talqin qilish uchun 0,00–0,39 oralig'i "boshlang'ich", 0,40–0,59 oralig'i "o'tish", 0,60–0,79 oralig'i "rivojlangan", 0,80–1,00 oralig'i esa "yetakchi" daraja sifatida qabul qilindi. Ushbu chegaralar statistik standart emas, balki koridorlarni ichki qiyoslash va chora-tadbirlarni ustuvorlashtirish uchun tavsiya etilgan boshqaruv shkalasidir. Ssenariylarda indikatorlar amaldagi mikroma'lumotlarning mavjudlik darajasidan kelib chiqib, ekspert-mantiqiy qiymatlar asosida belgilandi; shu bois natijalar boshqaruv qarorlarini qiyosiy baholashga xizmat qiluvchi model hisob-kitoblari sifatida talqin qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda avtomobil transportida 1,4 milliard tonna, temir yo'l transportida 73,9 million tonna, quvur transportida 61,8 million tonna va havo transportida 14,4

1 Manba: muallif ishlanmasi. Izoh: barcha komponentlar 0–1 oralig'ida normallashtiriladi; og'irliklar yig'indisi 1,00 ga teng.



ming tonna yuk tashilgan [3]. Ushbu qiymatlar yig'indisiga nisbatan hisoblanganda, avtomobil transportining ulushi 91,16 foizni tashkil etadi. Temir yo'l transportining ulushi 4,81 foiz, quvur transportining ulushi 4,02 foiz va havo transportining ulushi qariyb 0,001 foizga teng.

Mazkur ko'rsatkichlar tonna hisobidagi tashish hajmini ifodalaydi va tonna-kilometr, tashish masofasi yoki xalqaro tranzit tarkibini aks ettirmaydi. Shuningdek, quvur transporti o'ziga xos mahsulotlar bilan cheklanganligi sababli, umumiy statistikada mavjud bo'lsa-da, konteynerlashtirilgan multimodal yuklar uchun avtomobil yoki temir yo'l transportiga bevosita muqobil sifatida qaralmaydi. Shu bilan birga, avtomobil transportining yuqori ulushi ichki yig'ish-tarqatish tizimini temir yo'l terminalari va quruqlik portlari bilan bog'lash orqali modal muvozanatni yanada yaxshilash uchun sezilarli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

2-jadval.

O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi va hisoblangan ulushi, 2024-yil²

Transport turi	Yuk hajmi	Yagona o'lchovda, mln tonna	Hisoblangan ulush, %
Avtomobil	1,4 mlrd tonna	1 400,0000	91,16
Temir yo'l	73,9 mln tonna	73,9000	4,81
Quvur	61,8 mln tonna	61,8000	4,02
Havo	14,4 ming tonna	0,0144	0,001
Jami	—	1 535,7144	100,00

Modal tarkibdan tashqari, koridorning raqobatbardoshligi chegara punktlaridagi kutish vaqti, reyslar muntazamligi, terminallarda qayta yuklash tezligi, bo'sh yurish ulushi va ma'lumotlarning o'z vaqtida uzatilishiga bog'liq. Jahon bankining 2023-yildagi Logistika samaradorligi indeksi nashrida O'zbekiston uchun umumiy ball 2,6 atrofida qayd etilgani logistika xizmatlari sifati, kuzatuv, vaqt va infratuzilma yo'nalishlarini izchil takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi [5]. Ushbu ko'rsatkich mamlakatlararo idrok va operatsion ma'lumotlarni umumlashtiradi; shu bois u koridor doirasidagi alohida loyiha samaradorligini baholashda qo'shimcha ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm

Tadqiqot natijasida yashil multimodal transport-logistika koridorini rivojlantirish mexanizmi "maqsad — vakolat — vosita — o'lchov — rag'bat — qayta aloqa" zanjiri asosida shakllantirildi. Mexanizmning bosh maqsadi yuk oqimlari hajmini oshirish bilan birga, tonna-kilometrga to'g'ri keladigan emissiya miqdori va to'liq logistika xarajatlarni kamaytirish, yetkazib berish ishonchligini oshirish hamda xalqaro ma'lumot standartlari bilan uyg'unlashuvni ta'minlashdan iborat.

Institutsional jihatdan transport, iqtisodiyot va moliya, ekologiya, bojxona, temir yo'l, avtomobil tashuvchilari, logistika markazlari va xususiy sektor vakillarini birlashtiruvchi Yashil multimodal koridorlar kengashini tuzish taklif etiladi. Kengash yangi ma'muriy qatlam sifatida emas, balki mavjud vakolatlar bo'yicha muvofiqlashtiruvchi platforma sifatida faoliyat yuritishi kerak. Har bir ustuvor yo'nalish uchun "koridor pasporti" ishlab chiqilib, unda bazaviy emissiya, vaqt, xarajat, terminal quvvati, raqamli qamrov va YMKRI maqsadlari qayd etiladi.

Iqtisodiy mexanizm davlat qo'llab-quvvatlashini faqat kapital xarajatlarga emas, balki verifikatsiya qilingan natijalarga bog'laydi. Bunda infratuzilmaviy davlat-xususiy sheriklik, yashil obligatsiyalar, xalqaro iqlim moliyasi, tezlalashtirilgan amortizatsiya va energiya tejamkor uskunalardan uchun bojxona-soliq rag'batlari bir paketda qo'llanishi mumkin. Temir yo'l tarif chegirmasi yoki modal siljish subsidiyasi yukni avtomobil transportidan past uglerodli intermodal zanjirga o'tkazish, elektron hujjatlar va MRV talablarini bajarish sharti bilan beriladi. Bu yondashuv subsidiya hajmini emas, balki real ekologik va logistika natijalarini rag'batlantiradi.

Raqamli blokda yagona jo'natma identifikatori, elektron yuk hujjatlari, terminal slotlarini bron qilish, bojxona va tashuvchilar o'rtasida ma'lumot almashinuvi, real vaqt rejimida kuzatuv hamda koridor "nazorat minorasi"ni shakllantirish nazarda tutiladi. Ma'lumot modeli BMT/CEFACT standartlari va Transkaspiy yo'nalishida multimodal hujjat almashuvini raqamlashtirish bo'yicha yo'l xaritasi bilan uyg'unlashtirilishi lozim [7; 24]. Muhim

2 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [3] asosida muallif hisob-kitobi. Ulushlar yaxlitlanishi sababli yig'indida kichik tafovut yuzaga kelishi mumkin.



shart — yangi yopiq platformani shakllantirishdan ko'ra, mavjud davlat va operator tizimlarini standart API hamda ma'lumotlar lug'ati orqali o'zaro integratsiyalashdir.

3-jadval
Yashil multimodal koridorni rivojlantirish mexanizmining funksional bloklari³

Blok	Asosiy subyektlar	Tavsiya etiladigan vositalar	Natija ko'rsatkichlari
1. Institutsional	Vazirliklar, bojxona, operatorlar, hududlar	Koridor kengashi; koridor pasporti; xizmat darajasi kelishuvi	Qaror vaqti; idoralararo topshiriqlar bajarilishi
2. Infratuzilmaviy	Temir yo'l, terminallar, quruqlik portlari, PPP hamkorlari	Intermodal uzeli; elektrlashtirish; energiya tejamkor texnika; quvvat rezervi	Terminal vaqti; quvvatdan foydalanish; energiya sarfi
3. Raqamli	Bojxona, tashuvchilar, IT operatorlari	Yagona identifikator; e-hujjat; API; real vaqt kuzatuvi; slot boshqaruvi	Elektron hujjatlar ulushi; ma'lumotlar to'liqligi; kuzatuv qamrovi
4. Moliyaviy-iqtisodiy	Moliya institutlari, davlat, xususiy investorlar	Yashil obligatsiya; PPP; natijaga bog'langan subsidiya; tezlashtirilgan amortizatsiya	Jalb qilingan xususiy kapital; emissiya tejalishi birligiga xarajat
5. Operatsion-logistik	Ekspeditor, temir yo'l va avtotashuvchilar, terminal	Konsolidatsiya; sinxromodal rejalashtirish; bo'sh yurishni qisqartirish	Yetkazib berish vaqti; muntazamlik; bo'sh yurish; yuklanganlik
6. Monitoring va MRV	Ekologiya organi, mustaqil auditor, koridor ofisi	YMKRI paneli; CO ₂ -ekv. hisoboti; mustaqil verifikatsiya; ochiq yillik hisobot	kg CO ₂ -ekv./tonna-km; YMKRI; maqsadga erishish

Natijaga bog'langan qo'llab-quvvatlash uchun YMKRI tarkibidan to'rtta komponent ajratilib, rag'batlantirish koeffitsiyenti (K_r) taklif qilinadi:

$$K_r = 0,40E^* + 0,25M^* + 0,20D^* + 0,15R^*. \quad (4)$$

$$S_i = S_{\max} \times K_r \times Q_i, \quad (5)$$

bu yerda S_i — i-loyiha yoki tashuvchi uchun hisoblangan rag'bat summasi; $S_{\max}$ — bir birlik tasdiqlangan yuk yoki transport ishiga belgilangan eng yuqori rag'bat stavkasi; Q_i — talablarga javob bergan yuk hajmi yoki transport ishi. Koeffitsiyent davlat yordamini emissiya samaradorligi, modal siljish, raqamli shaffoflik va toza energiyadan foydalanish bilan bog'laydi. To'lov bazaviy holat, hisoblash metodikasi va mustaqil verifikatsiya mavjud bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv "yashil" tamoyillar asosida ajratiladigan subsidiyalarning samaradorligini oshirish hamda emissiyaning boshqa bo'g'inga ko'chirilishining oldini olish imkonini beradi.

Ilmiy ish natijalari va amalga oshirish bosqichlari

Taklif etilgan indeksning boshqaruv qarorlarida qo'llanishini ko'rsatish maqsadida uchta ssenariy shakllantirildi. Bazaviy ssenariyda alohida loyihalar mavjud, biroq yagona koridor boshqaruvi va MRV tizimi shakllantirish bosqichida deb qabul qilindi. Mo'tadil ssenariyda terminal va raqamlashtirish bo'yicha pilot loyihalar, cheklangan tarif rag'batlari hamda muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yo'lga qo'yiladi. Tezlashtirilgan ssenariyda esa ma'lumotlarning o'zaro ishlashi, natijaga bog'langan moliyalashtirish, intermodal quvvat va toza energiya yechimlari koridor bo'ylab kengaytiriladi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.


 4-jadval
 YMKRI bo'yicha boshqaruv ssenariylari⁴

Ssenariy	Asosiy shartlar	YMKRI	Daraja	Boshqaruv xulosasi
Bazaviy	Alohida loyihalar; avtomobil transportining ustunligi; ma'lumot almashuvining rivojlanish bosqichi; MRV tizimini shakllantirish	0,31	Boshlang'ich	Tashkiliy va ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq
Mo'tadil	Pilot terminal; e-hujjat qamrovi; koridor kengashi; cheklangan yashil moliya	0,57	O'tish	Pilot natijalarini standartlashtirish va kengaytirish maqsadga muvofiq
Tezlashtirilgan	Intermodal tarmoq; standart API; natijaga bog'langan rag'bat; toza energiya va to'liq MRV	0,77	Rivojlangan	Xalqaro koridorlar bilan o'zaro ishlashga tayyor model

Ilmiy ish tahlili shuni ko'rsatadiki, infratuzilmaga investitsiya kiritish bilan bir qatorda, boshqa tarkibiy yo'nalishlarni ham kompleks rivojlantirish indeksni "rivojlangan" darajaga olib chiqish imkonini beradi. Eng katta ijobiy siljish uglerod samaradorligi va modal muvozanat bilan birga, vaqt-xarajat natijalari, elektron ma'lumotlar qamrovi va terminallarning o'zaro moslashuvi yaxshilanganda yuz beradi. Demak, koridor dasturini obyektlar ro'yxati sifatida emas, balki o'zaro bog'langan xizmatlar va natijalar portfeli sifatida boshqarish maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan mexanizmni 2026–2030-yillarda quyidagi uch bosqichda joriy etish maqsadga muvofiq:

1. 2026–2027-yillar — diagnostika va institutsional tayyorgarlik. Ustuvor koridorlar uchun bazaviy emissiya, vaqt, xarajat, terminal quvvati va raqamli qamrov inventarizatsiyasi o'tkaziladi; koridor kengashi, yagona metodika va ma'lumotlar lug'ati tasdiqlanadi. Toshkent–Samarqand–Navoiy–Buxoro yo'nalishi va uning xalqaro tutashuvlari pilot nomzod sifatida texnik-iqtisodiy jihatdan baholanadi.

2. 2027–2028-yillar — pilot va integratsiya. Tanlangan intermodal terminallarda yagona jo'natma identifikatori, elektron hujjat, slot boshqaruvi, real vaqt rejimida kuzatuv va CO₂-ekv. hisoboti sinovdan o'tkaziladi. Yashil obligatsiya yoki PPP asosidagi investitsiya loyihalariga YMKRI va MRV talablari kiritiladi.

3. 2029–2030-yillar — kengaytirish va xalqaro uyg'unlashtirish. Tasdiqlangan pilotlar CARECning olti multimodal koridori va Transkaspiy yo'nalishidagi raqamli hujjat almashuvi bilan uyg'unlashtiriladi [6; 7]. Natijaga bog'langan rag'bat va koridor reytingi boshqa yo'nalishlarga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston sharoitida koridor boshqaruvi, intermodal infratuzilma, raqamli o'zaro ishlash, yashil moliyalashtirish, operatsion logistika va MRVni yagona qayta aloqa tizimida birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqildi;

2. koridor samaradorligini yetti komponent bo'yicha 0–1 shkalada baholash imkonini beruvchi Yashil multimodal koridor rivojlanish indeksi (YMKRI) taklif etildi;

3. davlat ko'magini verifikatsiya qilingan emissiya samaradorligi, modal siljish, raqamli shaffoflik va toza energiya natijalari bilan bog'lovchi K_r koeffitsiyenti asoslandi;

4. pilot bosqichidan xalqaro uyg'unlashuvigacha bo'lgan uch bosqichli joriy etish modeli va boshqaruv ssenariylarini qiyoslash shkalasi ishlab chiqildi.

Olingan natijalar yashil logistika bo'yicha klassik tadqiqotlarning transport xarajatlari va ekologik tashqi ta'sirlarni birgalikda optimallashtirish zarurligi haqidagi xulosalarini tasdiqlaydi [9; 10]. O'zbekiston misolida esa yo'nalish tanlash yoki avtopark samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, kompleks yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Dengiz portiga bevosita chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli xalqaro yuklar bir nechta yurisdiksiya, terminal va operatorlar orqali harakatlanadi. Bir bo'g'inda erishilgan ekologik samarani keyingi bo'g'inlarda kutish vaqtini optimallashtirish, qayta hujjatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish va bo'sh yurishni qisqartirish orqali yanada oshirish mumkin. Shu sababli taklif etilgan indeks emissiyani vaqt, xarajat, raqamli va texnologik uyg'unlik bilan birgalikda baholaydi.

⁴ Manba: muallifning ssenariy hisob-kitobi. Izoh: YMKRI qiymatlari prognoz ko'rsatkichlari emas; ular 1-jadvaldagi og'irliklar va faraz qilingan normallashtirilgan ko'rsatkichlar asosidagi qiyosiy model natijalaridir.



Macharis va Bontekoning intermodal yuk tashishda operatsion tadqiqotlar imkoniyatlari haqidagi yondashuvi [11], shuningdek, Regmi va Hanaokaning Osiyo koridorlariga doir xulosalari [12] multimodal tarmoqning muvaffaqiyati terminal va institutsional muhitga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda mazkur yondashuv O'zbekiston uchun koridor pasporti, yagona kengash va natijaga bog'langan moliyaviy vosita bilan to'ldirildi. Quruqlik portlari yuklarni konsolidatsiya qilish, bojxona rasmiylashtiruvini ichki hududga ko'chirish va temir yo'l partiyalarini shakllantirish orqali avtomobil qatnovining uzoq masofali qismini qisqartirish imkonini beradi [13; 14]. Shu bilan birga, terminal joylashuvini talab oqimi, temir yo'l jadvali va so'nggi mil xarajatlari bilan birgalikda optimallashtirish qo'shimcha qayta yuklash jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Karam va hammualliflar aniqlagan to'siqlar tasnifi [17] taklif etilgan olti blokli mexanizm bilan mazmungan mos keladi. Ayniqsa, o'zaro moslashuvchanlik va boshqaruv jarayonlarini O'zbekiston sharoitida yangi temir yo'l yoki terminal infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, tashkiliy jihatdan ham takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Elektron hujjatlarning huquqiy tan olinishi, ma'lumotlar sifati, operatorlar o'rtasida xizmat darajasi bo'yicha kelishuv va chegara idoralari ish jadvalini o'zaro muvofiqlashtirilgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq. Raqamlashtirish qog'oz hujjatning elektron nusxasini yaratish bilan bir qatorda, ma'lumotlarni bir marta kiritish va vakolatli tomonlar o'rtasida ulardan qayta foydalanishni ta'minlashi lozim.

Zhang va hammualliflarning ekologik afzalliklarni hisobga oluvchi hamkorlikdagi rejalashtirish modeli [18], Rotaris va hammualliflarning kombinatsiyalangan transport xarajatlari va ekologik foydasiga doir natijalari [19] hamda Pfoeserning foydalanuvchiga yo'naltirilgan choralari [20] shuni ko'rsatadiki, modal siljishning barqarorligini ta'minlashda xizmat sifati oshirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli taklif etilayotgan subsidiyada temir yo'lga o'tkazilgan yuk hajmi bilan bir qatorda, o'z vaqtida yetkazib berish, elektron kuzatuv va verifikatsiya ham asosiy shartlar sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv tashuvchi uchun noaniqlikni kamaytiradi, davlat uchun esa qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha natijalarini o'lchash imkonini beradi.

Yashil koridor mezonlarini tanlash bo'yicha so'nggi tadqiqotlarda energiya manbai, infratuzilma tayyorligi, boshqaruv va manfaatdor tomonlar hamkorligi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi [21]. O'zbekiston uchun qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining kengayishi temir yo'l elektr tortuvi va terminal uskunalarining hayotiy sikl emissiyasini pasaytirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, elektrlashtirishning ekologik samaradorligini kompleks baholashda elektr energiyasining tarmoq omili, uskunalarining yuklanish darajasi va qurilish bosqichidagi emissiyalarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Taklifning amaliy ustunligi yirik kapital loyihalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, ma'lumotlar standarti, xizmat kelishuvi, slot boshqaruvi va bo'sh yurishni qisqartirish kabi nisbatan tezkor choralarni ishga tushirish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, modelni kelgusida yanada takomillashtirish uchun uchta muhim yo'nalish mavjud. Birinchidan, koridorlar kesimida tonna-kilometr, emissiya, logistika xarajatlari va terminal vaqti bo'yicha mikroma'lumotlar bazasini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, indeks og'irliklarini mualliflik ekspert baholari bilan bir qatorda, kengroq ekspert baholash usullari orqali aniqlashtirish imkoniyati mavjud. Uchinchidan, ssenariy qiymatlarini amaliy loyiha natijalari asosida sinovdan o'tkazish ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida tashuvchilar, ekspeditorlar, bojxona, terminallar va yuk egalari o'rtasida o'tkaziladigan so'rovlar asosida AHP og'irliklarini tekshirish, panel ma'lumotlari yordamida iqtisodiy samarani baholash va pilot koridorda "oldin-keyin" dizaynini qo'llash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot O'zbekistonda multimodal transport-logistika koridorlarini yashil logistika tamoyillari asosida rivojlantirish alohida infratuzilma loyihalari yig'indisi sifatida emas, balki idoralararo boshqaruv, intermodal xizmat, raqamli ma'lumotlar, moliyaviy rag'bat va ekologik hisobdorlikni birlashtiruvchi tizim sifatida amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatdi. 2024-yil statistikasi bo'yicha avtomobil transportining umumiy tashilgan yuk hajmidagi hisoblangan ulushi 91,16 foizni tashkil etib, temir yo'l bilan bog'langan konsolidatsiya va quruqlik portlarini rivojlantirish uchun salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, modal siljish yetkazib berish vaqti, xarajati va ishonchligi raqobatbardosh bo'lgan sharoitda barqaror natija beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ustuvor koridorlar bo'yicha Yashil multimodal koridorlar kengashini shakllantirish va har bir koridor uchun vakolat, xizmat darajasi, bazaviy ko'rsatkichlar va maqsadlarni belgilovchi yagona "koridor pasporti"ni tasdiqlash.

2. 2026–2027-yillarda kamida bitta pilot yo'nalishda tonna-kilometr, CO₂-ekv., to'liq logistika xarajati, chegara va terminal vaqti, o'z vaqtida yetkazib berish hamda bo'sh yurish bo'yicha bazaviy o'lchovlarni amalga oshirish.



3. Yagona jo'natma identifikatori, elektron hujjatlar, terminal slotlari va real vaqt rejimidagi kuzatuvni mavjud davlat va operator tizimlari bilan standart API orqali integratsiya qilish hamda ma'lumotlarni takroriy kiritish zaruratini kamaytirish.

4. Intermodal terminal va quruqlik porti investitsiyalarini yuk oqimi, temir yo'l jadvali, energiya samaradorligi va so'nggi mil xarajatlarini birgalikda hisobga oladigan texnik-iqtisodiy tahlil asosida tanlash.

5. Temir yo'l tarif chegirmasi, modal siljish subsidiyasi va yashil moliyalashtirishni K_r koeffitsiyenti asosida emissiya samaradorligi, elektron shaffoflik va mustaqil MRV natijalari bilan bog'lash.

6. YMKRI indikatorlari uchun milliy metodikani tasdiqlash, og'irliklarni davlat, biznes va ilmiy doira ekspertlari ishtirokida AHP orqali tekshirish hamda yillik koridor hisobotini e'lon qilish.

7. CAREC va Transkaspiy yo'nalishlari bilan elektron hujjatlar, ma'lumotlar lug'ati va o'zaro tan olish talablarini bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish hamda chegara punktlarida qo'shma vaqt normativlarini joriy etish.

8. Pilot natijalarini emissiya, vaqt va xarajat bo'yicha mustaqil baholash asosida boshqa koridorlarga bosqichma-bosqich kengaytirish hamda mablag'larni yuqori qo'shimcha samara ko'rsatgan yechimlarga ustuvor ravishda yo'naltirish.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan YMKRI va natijaga bog'langan rag'batlantirish mexanizmi O'zbekiston transport-logistika siyosatida infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, "o'lchanadigan yashil koridor xizmati" yondashuvini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Uning samaradorligi koridorlar kesimidagi ishonchli ma'lumotlar, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aniq vakolatlar va ochiq verifikatsiya bilan uzviy bog'liq. Mazkur shartlar ta'minlanganda transportning ekologik yukini kamaytirish, tranzit jozibadorligini oshirish va milliy iqlim majburiyatlariga hissa qo'shish bir-birini to'ldiruvchi hamda o'zaro kuchaytiruvchi maqsadlarga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4539502>.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Havo transportida 14,4 ming tonna yuk tashilgan: 2024-yil transport turlari bo'yicha ma'lumot [Elektron resurs]. — 2025. — URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/60453-havo-transportida-14-4-ming-tonna-yuk-tashilgan>.
3. Republic of Uzbekistan. First Biennial Transparency Report under the United Nations Framework Convention on Climate Change [Electronic resource]. — Tashkent, 2024. — URL: https://unfccc.int/sites/default/files/resource/BTR1_Uzbekistan_eng.pdf.
4. World Bank. Logistics Performance Index 2023: Uzbekistan [Electronic resource]. — URL: <https://data.worldbank.org/indicator/LP.LPI.OVRL.XQ?locations=UZ>.
5. Asian Development Bank. CAREC Transport Strategy 2030 [Electronic resource]. — Manila: Asian Development Bank, 2020. — URL: <https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/559456/carec-transport-strategy-2030.pdf>.
6. United Nations Economic Commission for Europe. Roadmap for the Digitalization of Multimodal Data and Document Exchange along the Trans-Caspian Transport Corridor [Electronic resource]. — Geneva: UNECE, 2023–2024. — URL: <https://unece.org/media/SPECA/press/385812>.
7. World Bank. The Decarbonization of Logistics in Lower Income Countries [Electronic resource]. — Washington, DC: World Bank, 2023. — URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/fa18db17-9c68-471d-b4cd-08b7338908d0>.
8. Dekker R., Bloemhof J. M., Mallidis I. Operations Research for Green Logistics — An Overview of Aspects, Issues, Contributions and Challenges // European Journal of Operational Research. — 2012. — Vol. 219, No. 3. — P. 671–679. — DOI: 10.1016/j.ejor.2011.11.010.
9. Bektaş T., Laporte G. The Pollution-Routing Problem // Transportation Research Part B: Methodological. — 2011. — Vol. 45, No. 8. — P. 1232–1250. — DOI: 10.1016/j.trb.2011.02.004.
10. Macharis C., Bontekoning Y. M. Opportunities for OR in Intermodal Freight Transport Research: A Review // European Journal of Operational Research. — 2004. — Vol. 153, No. 2. — P. 400–416. — DOI: 10.1016/S0377-2217(03)00161-9.
11. Regmi M. B., Hanaoka S. Assessment of Intermodal Transport Corridors: Cases from North-East and Central Asia // Research in Transportation Business & Management. — 2012. — Vol. 5. — P. 27–37. — DOI: 10.1016/j.rtbm.2012.11.002.



12. Hanaoka S., Regmi M. B. Promoting Intermodal Freight Transport through the Development of Dry Ports in Asia: An Environmental Perspective // IATSS Research. — 2011. — DOI: 10.1016/j.iatssr.2011.06.001.
13. Roso V., Woxenius J., Lumsden K. The Dry Port Concept: Connecting Container Seaports with the Hinterland // Journal of Transport Geography. — 2009. — Vol. 17. — P. 338–345. — DOI: 10.1016/j.jtrangeo.2008.10.008.
14. Harris I., Wang Y., Wang H. ICT in Multimodal Transport and Technological Trends: Unleashing Potential for the Future // International Journal of Production Economics. — 2015. — Vol. 159. — P. 88–103. — DOI: 10.1016/j.ijpe.2014.09.005.
15. Pfoser S., Treiblmaier H., Schauer O. Critical Success Factors of Synchromodality: Results from a Case Study and Literature Review // Transportation Research Procedia. — 2016. — Vol. 14. — P. 1463–1471. — DOI: 10.1016/j.trpro.2016.05.220.
16. Karam A., Jensen A. J. K., Hussein M. Analysis of the Barriers to Multimodal Freight Transport and Their Mitigation Strategies // European Transport Research Review. — 2023. — Vol. 15. — Article 43. — DOI: 10.1186/s12544-023-00614-0.
17. Zhang Y., Heinold A., Meisel F., Negenborn R. R., Atasoy B. Collaborative Planning for Intermodal Transport with Eco-Label Preferences // Transportation Research Part D: Transport and Environment. — 2022. — Vol. 112. — Article 103470. — DOI: 10.1016/j.trd.2022.103470.
18. Rotaris L., Tonelli S., Capoani L. Combined Transport: Cheaper and Greener // Research in Transportation Business & Management. — 2022. — Vol. 43. — Article 100792. — DOI: 10.1016/j.rtbm.2022.100792.
19. Pfoser S. Developing User-Centered Measures to Increase the Share of Multimodal Freight Transport // Research in Transportation Business & Management. — 2022. — Vol. 43. — Article 100729. — DOI: 10.1016/j.rtbm.2021.100729.
20. Bengue A. A., Alavi-Borazjani S. A., Chkoniya V., Cacho J. L., Fiore M. Prioritizing Criteria for Establishing a Green Shipping Corridor: A Multi-Criteria Decision Analysis Approach // Sustainability. — 2024. — Vol. 16, No. 21. — Article 9563. — DOI: 10.3390/su16219563.
21. Hrušovský M., Demir E., Jammerneegg W., Van Woensel T. Real-Time Disruption Management Approach for Intermodal Freight Transportation // Journal of Cleaner Production. — 2021. — Vol. 280. — Article 124826. — DOI: 10.1016/j.jclepro.2020.124826.
22. Mohri S. S., Thompson R. G. Designing Sustainable Intermodal Freight Transportation Networks Using a Controlled Rail Tariff Discounting Policy // Transportation Research Part A: Policy and Practice. — 2022. — Vol. 157. — P. 59–77. — DOI: 10.1016/j.tra.2022.01.012.
23. United Nations Centre for Trade Facilitation and Electronic Business (UN/CEFACT). Multimodal Transport Reference Data Model and Digital Transport Documents [Electronic resource]. — UNECE. — URL: <https://unece.org/trade/uncefact/mainstandards>.
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>